

COVID-19 GA CHALINGAN BEMORLARDA KO'RUV A'ZOSIDAGI PATOLOGIK O'ZGARISH XUSUSIYATLARNI O'RGANISH

ToshPTI oftalmologiya, Bolalar oftalmologiyasi kafedrasi t.f.d.

Islomov Ziyovuddin Sadriddinovich

*ToshPTI oftalmologiya, Bolalar oftalmologiyasi kafedrasi
magistratura talabasi*

Janiqulov Ismat Sobirjon o'g'li

e-mail: ismatjaniqulov@mail.ru

Mavzuning dolzarbligi. 2019-yil 31-dekabr kuni Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Xitoyda, Hubey provinsiyasining Uxan shahrida noma'lum qo'zg'atuvchi sababli 44 ta pnevmoniya holati qayd etilganligi haqida xabardor qilingan. Patogen yangi koronavirus (hozirda SARS-CoV-2 deb nomalanadi, dastlab 2019-nCoV degan vaqtincha nom berilgan edi) bo'lib chiqdi, u ilgari odamlar orasida aniqlanmagan virus sanaladi. Virus aniqlangan kundan boshlab 30 kun ichida infeksiya Uxan sharidan butun mamlakat bo'ylab tarqaldi. Shunday bo'lsa-da, Xitoy misolida karantin natijasida infeksiyaning tarqalishini to'xtatish mumkinligi aniq bo'ldi. Epidemiyaning boshlanishi munosabati bilan 2020-yil 30-yanvarda JSST sog'liqni saqlash sohasida xalqaro tashvishli favqulodda vaziyatni e'lon qildi va 2020-yil 28-fevralda JSST global darajada xavfni yuqori darajadan juda yuqori darajagacha ko'tardi. 2020-yil 11-martda epidemiya pandemiya deb tan olindi. Pandemiyaning xavfi — ko'p odamlarning bir vaqtning o'zida infeksiyalanishi sog'liqni saqlash tizimining haddan tashqari yuklanishiga, gospiyalizatsiyalar va o'limning ko'payishiga olib kelishi mumkinligida. Sog'liqni saqlash tizimi juda ko'p o'ta og'ir bemorlar oqimiga tayyor bo'lmasligi mumkin. Infeksiyaga qarshi eng muhim chora davolash ishlari emas, balki vaqtdan yutish va sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan yukni kamaytirish uchun uning tarqalish tezligini sekinlashtirishdir. Shunday pandemiya sharoitida COVID-19 kasalligining ko'ruv a'zosiga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Ishdan maqsad. COVID-19 ga chalingan bemorlar ko'ruv a'zolaridagi patologik o'zgarish xususiyatlarini o'rganish.

Ishning vazifalari.

- 1) Covid-19ga chalingan bemorlarda ko'ruv a'zosini o'rganish.
- 2) Tekshirilayotgan bemorlardagi ko'ruv a'zosining og'irlik holati bilan bog'liqligini o'rganish.
- 3) Tekshirilayotgan bemorlardagi ko'ruv a'zosining patologik o'zgarish holatini davolash chora tadbirlarini tavsiya etish.

Ishdan kutilayotgan natija: Koronavirus kasalligida ko'ruv a'zosidagi patologik o'zgarishlarni davolash uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Amaliy ahamiyati. COVID-19 kasalligida ko'ruv a'zosidagi patologik o'zgarishlarni davolash uchun tavsiyalar va profilaktik chora tadbirlar ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari.

Tadqiqot materiallari sifatida 2021-yil fevral oyidan oktabr oyigacha Yunusobod tumani 52-oilaviy poliklinikasida ko'zdagi shikoyatlari bilan oftalmolog shifokoriga murojat qilgan 22 ta bemorlar va 2021-yil yanvar oyidan 2022-yil sentabr oyigacha COVID-19 bilan bog'liq bolgan ko'ruv a'zosidagi shikoyatlar bilan TashPTI klinikasiga murojat qilgan va statsionar davolangan 9 ta bemorlar olingan. Shunday qilib tadqiqot uchun jami 31 ta bemor olindi.

Oftalmologik tekshirish usullari

Ko'zlaridan shikoyat kilib kelgan bemorlarni birinchi navbatda ularning shikoyatlariga ahamiyat berish kerak. Anamnez yigish lozim buladi. Kuzlarida bu belgilar kachon paydo buldi, nima bilan boglaydi, kushimcha kasalliklari bormi, travmalar utkazmaganmi, irsiy nasliy kasalliklari bor yoki yukligiga, oilaviy sharoiti, oilasida shu kasallik bilan kasallanganlar borligiga kata ahamiyat berish kerak. Agar bemorda COVID-19 kasaligi alomatlari sezilgan bo'lsa, yoki temperaturasi yuqori bolsa, bosh ogrigi, holsizlik, hansirash, nafas olish qiyinligi, yo'tal, burun oqishi, aksi urish shu kabi boshqa belgilar bolsa shu kasallik bilan kasallangan bemorlar bilan yaqin kontaktda bolgan bolsa albatta bemordan COVID-19 ga namuna olish lozim va albatta infeksiyest ko'rigi shart boladi. Anamnez yigib bolgandan keyin bemor ko'zlaridagi obektiv o'zgarishlarni tekshirish kerak. Obektiv ko'rikda ko'zning oldingi qismida nimalarga ahamiyat berish kerak: Qovoqlar terisi rangi tuzilishi, kipriklar holatiga, konturiga, qovoqlar osti va konyunktiva shilliq qavatlariga, rangiga, shox parda tiniqligiga, rangiga, old kamera suyuqligi tiniqligiga, kamera chuqurligiga, qorachiq holatiga, rangdor parda relifiga rangiga, gavhar tiniqligiga, ko'z tubini tekshirganimizda to'r parda rangi, qon tomirlar holatiga, ko'ruv nervi diski va makulaning razmeriga va holatiga katta e'tibor berishimiz kerak bo'ladi. Keyin bemor holatidan kelib chiqqan holda qo'shimcha tekshiruv usullarini tavsiya qilishimiz mumkin. Quyidagi tekshiruvlarni o'tkazish lozim:

- 1-Viziometriya;
- 2-Biomikroskopiya, oftalmoskopiya;
- 3-Tonometriya;
- 4-Refraktometriya;
- 5-Skiaskopiya;
- 6-A va B scan tekshiruvi;
- 7-UBM tekshiruvi;
- 8-Orbita rentgenografiyasi;
- 9-OCT tekshiruvi;

- 10-Ko'z yosh kanalini yuvib ko'rish;
- 11-MRT;
- Umumiy qon analizi;
- Burundan COVID-19 ga namuna olib PZR tekshiruvi o'tkazish.



2-rasm. Biomikroskopiya


Labarotor tekshiruvlar: Umumiy qon tahlili — qonning fizik va kimyoviy xossalari haqida ma'lumot olish uchun foydalaniladigan laboratoriya tekshiruvi. Qonni tekshirish odatda qo'lning barmog'idan yoki quloqdan olingan kapillyar qon namunasi bo'yicha amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda, suyak iligi qon hujayralari ham tekshirilishi mumkin. Umumiy qon analizi ichiga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi: Gemoglobin va gematokrit ko'rsatkich; Eritrotsitlar cho'kish tezligi (ECHT, rus tilida SOE); Rang ko'rsatkich; Qonning hujayraviy elementlari miqdori: eritrotsitlar qizil qon tanachalari, gemoglobin pigmenti miqdori, qonga beradi. Ko'rinib turibdiki, qonning umumiy analizi organizmdagi qon bilan bog'liq bo'lgan har qanday jarayonlarni ko'rsatib beradi.

Polimeraza zanjiri reaksiyasi (PZR)- molekulyar biologiyaning eksperimental usuli bo'lib, biologik materialda (namunada) ma'lum nuklein kislotasi (DNK) bo'laklarining past konsentratsiyasini sezilarli darajada oshirish usulidir. Bu analiz usuli virusli infeksiyalarni, masalan, gepatit, OIV, COVID-19 va boshqalarni


tashxislash uchun ishlatiladi. Usulning sezgirliги immunokimyoviy va mikrobiologik usullarga qaraganda ancha yuqori va usul printsiпи infektsiyalar mavjudligini tashxislash imkonini beradi. COVID-19 ga PZR analiz uchun namunalar maxsus paxtali tayoqchalar yordamida tomoq yoki burun shilliq qavatidan olinadi.

Natijalar. Poliklinikaga murojat qilgan bemorlarning 56 % ayollar 44 % erkaklar tashkil qildi. TashPTI klinikasiga murojat qilgan bemorlarning 11 % bir oylikkacha bo'lgan chaqolaqlar, 56 % 1-14 yoshgacha bolgan bolalar, 33 % 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qildi. Bolalarning 34 % o'g'il bolalar, 66 % qiz bolalar tashkil qildi. Bemorlarning asosiy shikoyatlari asosan 67% ko'rish o'tkirligining pasayishiga, 54% yorug'likka qaray olmaslikka, 51% ko'zlarning qizarib yoshlanishiga ayrim hollarda 33% turli xil ajralmalar ajralishiga, 29% ko'zlarda og'riq bo'lishiga shikoyat qilgan. Tadqiqot materiallari oilaviy poliklinikadagi oftalmolog shifokoriga murojat qilgan bemorlar anketalari taxlil qilindi. Poliklinikaga murojat qilgan bemorlarning aksariyatida ko'ruv a'zosidan boshqa organlaridan ham shikoyatlari bo'gan masalan, tana haroratining ko'tarilishi, yo'tal, burun oqishi, hid va ta'm sezgilarining yuqolishi, aks urish, bosh og'riq, bosh aylanishi, nafas olishning qiyinlashuvi, quvvatsizlik, ishtaha pasayishi kabi shikoyatlardir. 35% bemorlarimiz COVID-19 infeksiyasi bilan kasallanib maxsus COVID-19 bilan kasallarga ixtisoslashgan shifoxonalarda davolanib chiqqan yoki uy sharoitida davolangandan keyin ko'rish a'zosidagi shikoyatlar bilan murojat qilgan. Ushbu ma'lumotlarni o'rganish SARS-CoV-2 koronavirusining tanaga ko'zlar orqali kirib borishini ko'rsatdi va uning tarqalish yo'lini yaxshiroq o'rganish imkoniyatini yaratishi bilan muhimdir. Pandemiya boshida SARS-CoV-2 ni ko'z orqali yuqishi mumkin emas deb hisoblanardi. Hozir yangi koronavirus ham ko'zdan o'tishi mumkinligi to'g'risida dalillar ko'paymoqda. Koronaviruslar uchun yuqori nafas yo'llarining, kamroq - ichak va oshqozonning shikastlanishi o'ziga xosdir. Klinik jihatdan infeksiya engil isitma va intoksikatsiya belgilari bilan namoyon bo'ladi. Patologik jarayonning diagnostikasi virusni va qon zardobida patogenga antikorlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Davolashda etiotrop antiviral preparatlar va simptomatik terapiya (antipiretik, ekspektoran, mahalliy vazokonstriktor va boshqalar) kiradi. Koronavirus infeksiyasi havo tomchilari orqali tarqaladigan o'tkir virusli kasallikdir. Yuqori nafas yo'llariga kirgandan so'ng, koronaviruslar nazofarenks va orofarenkning epitelial hujayralarini kolonizatsiya qiladi, faol ravishda ko'payadi va epiteliositlarni yo'q qiladi. Tananing immun reaktivligi etarli bo'lmaganda, koronaviruslar alveolyar epiteliya hujayralariga kirib boradi, ularning sitoplazmasida patogen ko'payadi. Ekzotsitoz bilan tayyor virionlar hujayraning tashqi membranasida joylashgan bo'lib, epiteliositlarning birlashishi va sintsitiy hosil bo'lishiga yordam beradi. Keyinchalik o'pka to'qimalariga suyuqlik va oqsilning haddan tashqari terlashi, sirt faol moddasining ommaviy nobud bo'lishi va gaz almashinuvining keskin pasayishi bilan alveolalarning qulashi sodir

bo'ladi. Qayta tiklash vaqtida o'pka to'qimalarining ta'sirlangan joylari biriktiruvchi to'qima bilan almashtiriladi. Kasallikdan keyingi immunitet turga xos, doimiydir. Tana harorati kamdan-kam hollarda yuqori raqamlarga etadi, ko'pincha 38 ° C dan oshmaydi. Oftalmologik belgilari: ko'zlarning qizarishi, yoshlanishi, og'riq, ko'rish o'tkirliginin pasayishi, konyunktivada aralash ineksiya bo'lishi, ko'z tubida vena qon tomirlarning kengayishi, ko'ruv nervi diski va makula sohasidagi shishlar kabi klinik xususiyatlari bo'ladi.



Bemrlarning yoshga doir taqsimlanishi.



Bemrlarning kasallik bo'yicha taqsimlanishi

COVID-19 ga chalingan bemorlarni ko'ruv a'zosidagi patologik o'zgarishlarni davolash algoritimi: Yengil darajali COVID-19 bilan bog'liq virusniy kon'yunktibitlarni 5-7 kun davomida antibakterial, virusga qarshi va antiseptik tomchi dorilar tomizish. O'rta darajali COVID-19 bilan bog'liq virusniy kon'yunktibitlarni 7-10

k

Xulosa:

Tadqiqot materiali uchun 31 ta bemor tanlab olindi. Bemorlarning shikoyatlari taxlil qilindi, anamnez va epidanamnez ma'lumotlari yig'ildi. Bemorlarimizning hammasi oldin COVID-19 bilan kasallangan bemorlar bilan kontaktda bolganliklari aniqlandi. Ularning shikoyatlariga qarab kerakli tekshiruv amalyotlari bajarildi. Izlanish davomida zamonaviy tekshiruv usullaridan foydalanildi. Barcha bemorlar ko'rish o'tkirligini aniqlash maqsadida Golovin-Svisev va Landolt jadvallaridan foydalanildi. Tashqi ko'ruv o'tkazildi va ko'z olmasining oldingi qismi: konyunktiva, shox parda, oldingi kamera chuqurligi, qorachiq va gavhar holatini aniqlash maqsadida biomikroskop yordamida tekshirildi. Biomikroskopiya qilganimizda aksaryat bemorlarda konyunktivada aralash ineksiya borligini aniqladik. Refraksiyani aniqlash maqsadida avtorefraktometr yordamida refraktometriya qilindi. Ko'z olmasining orqa qismidagi patologik o'zgarishlarni aniqlash maqsadida ultratovush apparati yordamida A va B scan qilindi. Ko'z tubidagi makula va ko'ruv nervi diskidagi patologik o'zgarishlarni yuqori aniqlikda tekshirish uchun OKT (Optik-kogirent tomografiya) apparatida tekshiruv o'tkazildi. COVID-19 bilan bog'liq bo'lgan kavernoziy sinus tromboziga shubha bo'lganda MRT tekshiruvini o'tkazildi. Undan tashqari umumiy qon analizi, bioximya analizi, ALT, ACT tekshiruvini, umumiy siydik analizlari, TORCH, OIV, va Gepatit B, C, PZR, IFA analizlari qilindi. Tekshiruv natijalari analiz sentiz qilindi. Olingan tekshiruv natejalari va analiz javoblariga qarab difdiagnostika qilindi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Всемирная организация здравоохранения. Клиническое руководство по ведению пациентов с тяжелой острой респираторной инфекцией при подозрении на инфицирование новым коронавирусом (2019-nCoV). Временные рекомендации. Дата публикации: 25 января 2020 г. [Электронный ресурс]. URL: http://www.euro.who.int/__data/assets/pdf_file/0020/426206/RUSClinical-Management-ofNovel_CoV_Final_without-watermark.pdf?ua=1. (дата обращения 23.03.2020 г.)

s

g



a

c

2. World Health Organization. Clinical guidelines for the management of patients with severe acute respiratory infections with suspected infection with a new coronavirus (2019-nCoV). Temporary recommendations. Publication Date: January 25, 2020. [Electronic resource]. URL: http://www.euro.who.int/__data/assets/pdf_file/0020/426206/RUS-Clinical-Management-ofNovel_CoV_Final_without-watermark.pdf?ua=1. (date of the application: 23.03.2020) [In Russian] Coronavirus (Covid-19). [Электронный ресурс]. URL: <https://coronavirus-monitor.ru>. (дата обращения 23.03.2020 г.) Coronavirus (Covid-19 [Electronic resource]. URL: <https://coronavirusmonitor.ru>. (date of the application: 23.03.2020) [In Russian]
3. Alserehi H., Wali G., Alshukairi A., Alraddadi B. Impact of Middle East respiratory syndrome coronavirus (MERS-CoV) on pregnancy and perinatal outcome. BMC Infect Dis. 2016; 16: 105-108.
4. Bassetti M. The Novel Chinese Coronavirus (2019-nCoV) Infections: challenges for fighting the storm. <https://doi.org/10.1111/eci.13209> URL: <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/eci.13209>
5. Gu J., Han B., Jian Wang J. COVID-19: Gastrointestinal manifestations and potential fecal-oral transmission. Gastroenterology. 2020. <https://doi.org/10.1053/j.gastro.2020.02.054>
6. Cao B., Wang Y., Wen D. et al. A Trial of Lopinavir–Ritonavir in Adults Hospitalized with Severe Covid-19. New England Journal Medicine. 2020; DOI: 10.1056/NEJMoa2001282.
7. Zhang L., Lin D., Sun X. et al. Crystal structure of SARS-CoV-2 main protease provides a basis for design of improved α -ketoamide inhibitors. Science. 2020. doi. 10.1126/science.abb3405.
8. Федеральная служба по надзору в сфере защиты прав потребителей и благополучия человека. О новой коронавирусной инфекции. [Электронный ресурс]. URL: https://rospotrebnadzor.ru/region/korono_virus/punkt.php. (дата обращения 23.03.2020 г.) Federal Service for Supervision of Consumer Rights Protection and Human Well-Being. About a new coronavirus infection. [Electronic resource]. URL: https://rospotrebnadzor.ru/region/korono_virus/punkt.php. (date of the application: 23.03.2020) [In Russian]